

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI TASVIRIY SAN'AT YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Raximova Nargiza Ahmadjon qizi

Qarshi davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti,
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20594310>

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni tasviriy san'at vositalari yordamida rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilinadi. Tasviriy san'at bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish, emotsional holatini yaxshilash hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada art-terapiya usullarining imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashdagi samaradorligi, ularning o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etishi va shaxs sifatida shakllanishiga ta'siri yoritilgan.

Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning mayda motorikasi, tafakkuri, tasavvuri va kommunikativ ko'nikmalari rivojlanishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Inklyuziv ta'lim muhitida tasviriy san'at mashg'ulotlarining ahamiyati, bolalarning jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ham ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari tasviriy san'atning imkoniyati cheklangan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, imkoniyati cheklangan bolalar, art-terapiya, inklyuziv ta'lim, ijodkorlik, rivojlanish, pedagogika, psixologiya, estetik tarbiya, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ ko'nikma, emotsional rivojlanish, badiiy faoliyat, qobiliyat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты развития детей с ограниченными возможностями посредством изобразительного искусства. Изобразительное искусство является важным средством формирования творческих способностей, эстетического вкуса, эмоциональной устойчивости и социальной адаптации детей. В статье раскрывается значение арт-терапии в работе с детьми с ограниченными возможностями, её влияние на самовыражение, развитие личности и улучшение психоэмоционального состояния. На основе научных источников анализируется роль художественной деятельности в развитии мелкой моторики, мышления, воображения и коммуникативных навыков детей.

Особое внимание уделяется значению занятий изобразительным искусством в условиях инклюзивного образования, где они способствуют формированию навыков сотрудничества и взаимодействия в коллективе. Результаты исследования подтверждают, что изобразительное искусство является эффективным педагогическим инструментом для раскрытия способностей детей с ограниченными возможностями, поддержки их всестороннего развития и успешной интеграции в общество.

Ключевые слова: изобразительное искусство, дети с ограниченными возможностями, арт-терапия, инклюзивное образование, творчество, развитие, педагогика, психология, эстетическое воспитание, социальная адаптация, коммуникативные навыки, эмоциональное развитие, художественная деятельность, способности.

Abstract. This article examines the pedagogical and psychological aspects of developing children with disabilities through visual arts. Visual art is considered an effective tool for enhancing creativity, forming aesthetic values, improving emotional well-being, and supporting

social adaptation. The study highlights the importance of art therapy methods in working with children with disabilities and explains their role in self-expression, personality development, and emotional stability. Based on scientific literature, the article analyzes how artistic activities contribute to the development of fine motor skills, thinking abilities, imagination, and communication skills. Special attention is given to the role of visual arts in inclusive education, where art activities help children develop cooperation, interaction, and teamwork skills. The findings indicate that visual arts serve as an effective pedagogical approach for supporting the comprehensive development of children with disabilities, revealing their talents and abilities, and facilitating their successful integration into society. Therefore, the implementation of visual arts and art therapy practices in educational settings is of great significance for improving the quality of education and social participation of children with special needs.

Keywords: visual art, children with disabilities, art therapy, inclusive education, creativity, development, pedagogy, psychology, aesthetic education, social adaptation, communication skills, emotional development, artistic activity, abilities.

KIRISH

Bugungi globallashuv va innovatsion rivojlanish sharoitida har bir insonning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olishi, ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda shaxs sifatida kamol topishi davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [5].

Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishida ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bir qatorda san'atning turli yo'nalishlari ham muhim o'rin egallaydi. Xususan, tasviriy san'at bolalarning estetik dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ichki hissiyotlarini namoyon etish imkonini beruvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bola ranglar, shakllar va obrazlar orqali o'z fikrlarini ifodalaydi, atrof-muhitni anglaydi hamda o'ziga xos dunyoqarashini shakllantiradi. Bu esa nafaqat uning badiiy qobiliyatlarini, balki tafakkur, xotira, diqqat va tasavvur kabi muhim psixik jarayonlarini ham rivojlantiradi [4]. Bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlarida tasviriy san'atning terapevtik imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Art-terapiya usullari orqali bolalarning ruhiy zo'riqishlarini kamaytirish, emotsional holatini barqarorlashtirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Ayniqsa, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida muayyan cheklovlarga ega bo'lgan bolalar uchun tasviriy san'at o'zini namoyon qilishning eng qulay va samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Rasm chizish, bo'yash, kollaj yaratish va boshqa badiiy faoliyat turlari orqali ular o'z kechinmalari, his-tuyg'ulari va orzu-istaklarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, art-terapiya bolalarning ruhiy holatini yaxshilash, ijtimoiy faolligini oshirish hamda o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega [1; 2]. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlari imkoniyati cheklangan bolalarning jamoadagi o'rnini mustahkamlash, ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirish hamda o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Bunday mashg'ulotlar bolalarda mustaqillik, mas'uliyat va ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirish bilan birga, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ham yordam beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi imkoniyati cheklangan bolalarni tasviriy san'at vositalari orqali rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, tasviriy san'at hamda art-terapiyaning ularning ruhiy, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot davomida tasviriy san'atning inklyuziv ta'lim tizimidagi ahamiyati hamda bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o'rni yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Imkoniyati cheklangan bolalarni tasviriy san'at vositalari yordamida rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda tasviriy san'atning bolalarning nafaqat estetik dunyoqarashini shakllantirishdagi, balki ularning ruhiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni ham keng o'rganilmoqda. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonida tasviriy san'at va art-terapiya usullaridan foydalanish samarali natijalar berayotgani ko'plab tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan. D.O. Zarifovning tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishda art-terapiyaning o'rni alohida tahlil qilingan. Muallifning ta'kidlashicha, tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning ichki hissiyotlarini namoyon etish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, rasm chizish va boshqa badiiy faoliyatlar bolalarning psixologik holatini yaxshilab, ulardagi xavotir va tushkunlik holatlarini kamaytirishga yordam beradi [1]. M.R. Xudoyberdiyeva tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda art-terapiyaning bolalar xulq-atvori va ruhiy holatiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ranglar bilan ishlash, rasm chizish va kollaj yaratish kabi mashg'ulotlar bolalarning hissiy zo'riqishlarini kamaytiradi hamda ularda ijobiy emotsiyalarni shakllantiradi. Bundan tashqari, san'at faoliyati orqali bolalar o'z muammolarini bilvosita ifodalash imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning psixologik holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi [2]. Shakarboyeva va Qayumovning tadqiqotlarida autizm spektridagi bolalarni rivojlantirishda art-terapiya metodlarining samaradorligi keng yoritilgan.

Mualliflarning fikricha, autizmli bolalar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini og'zaki tarzda ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Tasviriy san'at esa ular uchun muqobil muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Rasm chizish jarayonida bolalar o'z kechinmalarini ifodalaydi, bu esa ularning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3]. D.A. Berdiyev va A.S. Ergashovalarning ilmiy ishlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotchilar tasviriy faoliyat bolaning tasavvurini kengaytirishi, mustaqil fikrlashini rivojlantirishi hamda yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini shakllantirishini ta'kidlaydilar. Mualliflar ijodiy faoliyat orqali bolalarda estetik did, kuzatuvchanlik va badiiy tafakkur rivojlanishini ilmiy asoslab berganlar [4]. G.R. Ostonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inklyuziv ta'lim tizimida art-pedagogika usullaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tasviriy san'at mashg'ulotlari imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga, ijtimoiy tenglik muhitini shakllantirishga hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi [5]. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at imkoniyati cheklangan bolalarni har tomonlama rivojlantirishda samarali vosita bo'lib, ularning emotsional holatini yaxshilash, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois ta'lim muassasalarida tasviriy san'at va art-terapiya mashg'ulotlarini keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda imkoniyati cheklangan bolalarni tasviriy san'at vositalari orqali rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, inklyuziv ta'lim va art-terapiya konsepsiyalari tashkil etadi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi [1; 5].

Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib borilgan tasviriy san'at mashg'ulotlarining natijalari bo'yicha mavjud ilmiy ma'lumotlar o'rganildi. Tadqiqotda bolalarning ijodiy faolligi, emotsional holati, kommunikativ ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuviga tasviriy san'atning ta'siri tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar nazariy jihatdan umumlashtirilib, ilmiy xulosalar shakllantirildi [2; 3; 4]. Natijada tasviriy san'at va art-terapiya usullarining imkoniyati cheklangan bolalar rivojlanishidagi samaradorligi ilmiy manbalar asosida asoslab berildi hamda ularni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida imkoniyati cheklangan bolalarni tasviriy san'at vositalari orqali rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi. O'rganilgan ilmiy manbalar hamda mavjud tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tasviriy san'at bolalarning psixologik, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rasm chizish, bo'yash, aplikatsiya va kollaj yaratish kabi faoliyat turlari bolalarning ichki dunyosini namoyon etish, hissiy holatini boshqarish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi [1]. Tahlillar natijasida aniqlandiki, imkoniyati cheklangan bolalar ko'pincha o'z fikr va hissiyotlarini og'zaki tarzda ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Tasviriy san'at esa ularga ranglar, shakllar va obrazlar orqali o'z kechinmalarini ifodalash imkonini beradi.

Bu jarayon bolalarda ruhiy yengillik hosil qilib, ulardagi qo'rquv, xavotir va tortinchoqlik darajasini kamaytiradi. Art-terapiya mashg'ulotlari orqali bolalarning emotsional holati yaxshilanib, o'ziga bo'lgan ishonchi ortishi kuzatiladi [2]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at bilan muntazam shug'ullanuvchi bolalarda ijodiy fikrlash, tasavvur qilish va muammolarga yangicha yondashish qobiliyati yuqori darajada rivojlanadi. Rasm chizish jarayonida bola atrof-muhitni kuzatadi, tahlil qiladi va o'z tasavvuri asosida yangi obrazlar yaratadi. Bu esa uning tafakkur faoliyatini faollashtirib, intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4]. Autizm spektridagi bolalar bilan olib borilgan tadqiqotlar natijalari ham tasviriy san'atning samaradorligini tasdiqlaydi. Mazkur bolalar uchun tasviriy faoliyat muloqotning muqobil shakli bo'lib xizmat qiladi. Ular rasm orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishiga va ijtimoiy moslashuvning yaxshilanishiga yordam beradi [3]. Shuningdek, inklyuziv ta'lim muhitida tashkil etilgan tasviriy san'at mashg'ulotlari imkoniyati cheklangan bolalarning jamoaga moslashuvi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi va ijtimoiy faolligining oshishiga xizmat qilishi aniqlandi. Bunday mashg'ulotlar bolalarda hamjihatlik, o'zaro hurmat va bag'rikenglik kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5]. O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi natijalarga erishildi: Tasviriy san'at imkoniyati cheklangan bolalarning emotsional holatini yaxshilashga xizmat qiladi; Art-terapiya bolalardagi ruhiy zo'riqish va xavotir darajasini kamaytiradi; Tasviriy faoliyat ijodiy fikrlash, tasavvur va badiiy qobiliyatlarni rivojlantiradi; Rasm chizish va boshqa

badiiy mashg'ulotlar kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi; Inklyuziv ta'limda tasviriy san'at bolalarning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi; Tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va shaxs sifatida kamol topishiga ko'maklashadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari tasviriy san'at va art-terapiya imkoniyati cheklangan bolalarni har tomonlama rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Mazkur faoliyat turini ta'lim muassasalarida keng qo'llash bolalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlantirish jarayonida tasviriy san'atning muhim pedagogik va psixologik vosita ekanligini ko'rsatdi. O'rganilgan ilmiy manbalar hamda tahlil natijalari tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning nafaqat ijodiy qobiliyatlarini, balki emotsional, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantirishini tasdiqlaydi. Shu jihatdan tasviriy san'at imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda an'anaviy ta'lim usullarini to'ldiruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi [1]. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, tasviriy san'at bolalarning o'zini erkin ifoda etishiga imkon yaratadi. Ko'plab imkoniyati cheklangan bolalar o'z his-tuyg'ularini so'z orqali ifodalashda qiyinchilikka duch keladilar. Bunday holatlarda rasm chizish, bo'yash va boshqa badiiy faoliyat turlari ular uchun muloqot vositasi vazifasini bajaradi. Bu esa bolalarning ichki kechinmalarini ochib berish va ularning psixologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi [2].

Muhokama jarayonida art-terapiyaning ahamiyati ham alohida e'tiborga loyiq ekanligi kuzatildi. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar art-terapiya bolalardagi stress, xavotir va emotsional zo'riqishni kamaytirishini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, autizm spektridagi bolalar bilan ishlashda tasviriy san'at mashg'ulotlari samarali natijalar berishi qayd etilgan.

Bunday faoliyat bolalarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularda muloqotga kirishish istagini kuchaytiradi va jamoadagi o'rnini mustahkamlaydi [3]. Shuningdek, tasviriy san'atning ta'limiy ahamiyati ham yuqori ekanligi aniqlandi. Mashg'ulotlar davomida bolalar ranglar, shakllar va kompozitsiyalar bilan ishlash orqali tafakkurini rivojlantiradi, kuzatuvchanligi ortadi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning umumiy intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari Berdiyev va Ergashova tomonidan ilgari surilgan fikrlar bilan hamohang bo'lib, tasviriy san'at bolalarda ijodkorlik va estetik didni shakllantirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi [4]. Inklyuziv ta'lim tizimida tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etish ham alohida ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlar imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalarning birgalikda faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Natijada o'zaro hurmat, hamkorlik va bag'rikenglik muhiti shakllanadi. Bu esa bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi hamda inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [5]. Shu bilan birga, tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, maxsus tayyorgarlikka ega pedagoglar sonining yetarli emasligi, zarur metodik qo'llanmalar va moddiy-texnik vositalarning cheklanganligi ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun tasviriy san'at va art-terapiya yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash, amaliy dasturlarni takomillashtirish hamda zamonaviy metodlardan foydalanishni kengaytirish zarur. Umuman olganda, tadqiqot natijalari va ilmiy manbalar tahlili tasviriy san'at imkoniyati cheklangan bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutishini ko'rsatdi.

Uning ta'lim-tarbiya jarayoniga keng joriy etilishi bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ruhiy holatini yaxshilash va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tasviriy san'at imkoniyati cheklangan bolalarni har tomonlama rivojlantirishda muhim pedagogik va psixologik vosita hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish, emotsional holatini yaxshilash va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda samarali natijalar beradi. Rasm chizish, bo'yash, aplikatsiya va boshqa badiiy faoliyat turlari orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning ruhiy holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar tasviriy san'atning bolalarning tafakkuri, tasavvuri, diqqat va xotirasini rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqladi.

Ayniqsa, art-terapiya usullaridan foydalanish imkoniyati cheklangan bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga moslashuvini kuchaytirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim muhitida tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etish bolalar o'rtasida hamkorlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va o'z salohiyatini to'liq namoyon etishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, tasviriy san'at va art-terapiya imkoniyati cheklangan bolalarning shaxsiy, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlovchi samarali ta'limiy vosita bo'lib, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Takliflar

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim oladigan muassasalarda tasviriy san'at va art-terapiya mashg'ulotlari hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.
2. Tasviriy san'at o'qituvchilari va maxsus pedagoglar uchun art-terapiya bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.
3. Inklyuziv ta'lim muassasalarida tasviriy san'at xonalari zamonaviy jihozlar va zarur badiiy materiallar bilan ta'minlanishi lozim.
4. Imkoniyati cheklangan bolalarning ijodiy ishlarini namoyish etuvchi ko'rgazmalar, tanlovlar va festivallarni muntazam ravishda tashkil etish tavsiya etiladi.
5. Tasviriy san'atning bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliyotga tatbiq etish zarur.
6. Ota-onalar bilan hamkorlikda tasviriy san'at mashg'ulotlarini uy sharoitida davom ettirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.
7. Art-terapiya va tasviriy san'at metodlarini imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning barcha bosqichlariga tizimli ravishda joriy etish lozim.

Shunday qilib, tasviriy san'at imkoniyati cheklangan bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi, ularning ijtimoiy faolligi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zarifova D.O. Imkoniyati cheklangan bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishda art-terapiyaning o'rni va ahamiyati // Science and Research. – 2025.

2. Xudoyberdiyeva M.R. San'at orqali davolash: art-terapiya metodlarining bolalar xulq-atvoriga ta'siri // Science and Education. – 2025.
3. Shakarboyeva S., Qayumov A. Autizmli bolalarni rivojlantirishda art terapiya usullaridan foydalanish imkoniyatlari // Pedagogik ta'lim va innovatsiyalar. – 2024.
4. Berdiyev D.A., Ergashova A.S. Tasviriy san'at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish // Pedagog xalqaro ilmiy jurnali. – 2024.
5. Ostonova G.R. Inklyuziv ta'lim tizimida art-pedagogika ta'limi usullari // Researcher. – 2026.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
8. Qosimov N.Q. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
9. Hasanov R.H. Tasviriy san'at va badiiy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.